



THE INCREASING ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE WITH DISABILITIES IS A NECESSITY FOR SOCIAL PROGRESS

Shakhnoza Khamidovna Alimova

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
Acting Associate Professor, Department of Humanities
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Disability, Universal Declaration of Human Rights, Declaration on the Rights of the Child, Civil Society, Social Protection, Social Policy, Disability Issues, Deinstitutionalization.

Abstract: This article analyzes the increasing activity of young people with disabilities as a necessity for social progress. It also discusses the role of civil society institutions in the socialization of young people with disabilities.

Received: 07.09.25

Accepted: 08.09.25

Published: 09.09.25

NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLAR FAOLLIGINING ORTIB BORISHI – IJTIMOYIY TARAQQIYOT ZARURATI

Shaxnoza Xamidovna Alimova

Gumanitar fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Nogironlik, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya, Fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, nogironlik muammolari, deinstitutionalizatsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan yoshlar faolligini ortib borishi ijtimoiy taraqqiyot zarurati sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, nogironligi bo'lgan yoshlar ijtimoiylashuvida fuqarolik jamiyati institutlarining roli haqida fikr yuritilgan.

ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ – НЕОБХОДИМОСТЬ СОЦИАЛЬНОГО ПРОГРЕССА

Шахноза Хамидовна Алимова

доктор философии (PhD) по философским наукам

и.о. доцента кафедры гуманитарных наук Ташкентского университета

информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми,

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Инвалидность, Всеобщая декларация прав человека, Декларация прав ребенка, гражданское общество, социальная защита, социальная политика, проблемы инвалидности, деинституционализация.	Аннотация: В данной статье анализируется возрастающая активность молодежи с инвалидностью как необходимость социального прогресса. Также рассматривается роль институтов гражданского общества в социализации молодежи с инвалидностью.
--	--

Kirish. Nogironligi bo'lgan yoshlarning faolligining ortib borishi – bu ijtimoiy taraqqiyot qonunchiligi asosida amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar nogironligi bo'lgan yoshlarning huquqlarini ta'minlash, ularni jamiyat va davlat hayotida to'la huquqli tarzda ishtirok etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ta'lim olish, kasbga tayyorlash, mehnat qilish, rehabilitatsiya va abilitatsiya ko'rsatish, sog'lig'ini saqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish, shu jumladan tashkilotlarga ijtimoiy faoliyatda keng jalb qilish uchun tizimli ishlarni amalga oshirishni oxirgi qoidalarga muvofiq amalga oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nogironligi bo'lgan yoshlar faolligining ortib borishi ijtimoiy taraqqiyot zarurati sifatida tahlil qilishdan iborat. Buning uchun tadqiqot metodologiyasini tashkil etuvchi tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish kabi nazariy usullardan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nogironligi bo'lgan yoshlar bilan bog'liq muammolarning ijtimoiy-antropologik jihatlarini ilk bor E. Dyurkgeym, M. Veber, R. Merton, P. Berger, T. Lukman, I. Goffman, G. Bekker, M. Fuko, Anri-Jaka Stakera, Lui Avana kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Nogironligi bor yoshlarni mustaqil hayot qurishlari va yashashlarida ta'lim-tarbiyaning o'rni, ushbu sohani maqsadli rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog'liq masalalar Ture Yonsson, Devid Bayn, Kristin Maylz, Kirk Xorton, R. Fuller kabi xorijlik olimlar ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Nogironligi bor yoshlarning psixologiyasi va uni pedagogik korrektsiyalash o'z-o'zini anglashi, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masalalar Yu.S. Alyoshina, Ye.R. Bayevskaya, L.S. Vigotskiy, A.N. Golubeva, A.N. Leontev, M. Krijanovskaya, L.P. Koskovoy, V.N. Myasishchev, N.N. Malofeyev, O.S. Nikolskaya,

K.D.Ushinskiy, N.D.Shmatko kabi MDH hamda M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, A.S.Begmatov, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev, Sh.R.Barotov, A.M.Jabborov, N.S.Safojev, Sh.S.Shoyimova, R.Shomaxmudova kabi O'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilib, bunday yoshlarning psixik rivojlanishi haqidagi nazariyalar, madaniy-tarixiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan.

Nogironligi bor yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari M.F.Hakimova, muammosi L.R.Mo'minova, X.M.Po'latova, I.G.Veretennikova, X.D.Kalbayeva, N.R.Rahmonqulova, U.Yu.Fayziyeva, M.S.Asanova kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Nogironligi bo'lgan yoshlar va ular bilan bog'liq muammolarning alohida jihatlari psixolog, sotsiolog, pedagog olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lsada, nogiron yoshlar ijtimoiylashuvining zamonaviy tajribasi ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar nafaqat ijtimoiy vaziyatni, balki yoshlarning ijtimoiy ong va madaniyatni o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham, nogironligi bo'lgan yoshlar ijtimoiylashuvining zamonaviy, jahon tajribasini aynan ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish zarur.

Muhokama. Yangi O'zbekiston sharoitida nogironligi bo'lgan yoshlarning faolligini oshirish va ularni ijtimoiy taraqqiyotga jalb etish muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu jarayonlarni tartibga soluvchi huquqiy kafolatlar ham yaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Qarori tasdiqlangan[15]. Ushbu konsepsiyada yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, mamlakatda xavfsizlik, ekologik barqarorlik, adolat va teng huquqlilikni ta'minlashda yoshlarning rolini oshirish, yoshlar uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, ular o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash kabi muhim masalalarga e'tibor qaratilgan. Nogironligi bo'lgan yoshlar faolligining ortib borishi va ijtimoiy taraqqiyot zarurati sifatida uning huquqiy asoslari bir necha qonunlar va qarorlar bilan ta'minlangan.

Mazkur Konsepsiyada 2021-2025-yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha prognozlari inobatga olingan. Jumladan, yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish hamda mamlakatda xavfsizlik, adolat va ekologik barqarorlikni ta'minlashda yoshlarning rolini oshirish, shuningdek, nogironligi bo'lgan yoshlar uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, ular o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash ham muhim vazifa sifatida belgilangan.

Nogironligi bo'lgan yoshlarning ta'limning barcha bosqichlarida sifatli ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha chora tadbirlar rejalari ishlab chiqilib bu borada amaliy ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Yoshlarga, xususan nogironligi bo'lgan yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish bo'yicha amaliy faoliyat yo'lga qo'yilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Yosh salohiyatli kadrlarni qo'llab-quvvatlash va ularni davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo'llab-quvvatlash borasida davlat siyosati darajasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu harakatlar albatta yoshlarning faolligini ortib borishiga xizmat qilmasdan qo'ymaydi.

Jamiyat rivojlanishi ma'lum qonun-qoidalar asosida amalga oshadigan jarayon bo'lib, ularni qabul qilmaslikning imkoni yo'q. Agarda umumiy qonunlar mavjud bo'lmasa mos ravishda uning kategoriyalari ham mavjud bo'la olmaydi va aksincha kategoriyalarsiz ijtimoiy taraqqiyot qonunlari haqidagi haqqoniy bilimga erishib bo'lmaydi. Ijtimoiy falsafa o'z mohiyatiga ko'ra muayyan kategoriyalar va tushunchalar tizimidan iborat. U yoki bu kategorianing mohiyat va mazmunini aniqlash ularning mazkur tizimdagi boshqa kategoriyalar bilan bog'liqligini anglashni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy falsafa kategoriyalari tizimi tarixiylik va mantiqiylikning birligi timsoli sifatida e'tirof etiladi. Jamiyat ilmiy taraqqiyoti bilishning eng murakkab predmetlaridan biri hisoblanadi. Tarixni yaratuvchisi jamiyat va unda hayot kechirayotgan insonlar hisoblanadi. Insonlar o'z oldilariga istiqbol maqsad va vazifalarini, manfaatlarini belgilab oladilar, shuningdek ularni amalga oshirish uchun kurashadilar. Shundan kelib chiqib zamonaviy ijtimoiy falsafa jahon falsafasi va o'tmishdagi boy ijtimoiy falsafiy ta'limotlar yutuqlariga suyangan holda ijtimoiy voqelikni ilmiy tushuntirib, voqea va hodisalarni mohiyatini bilishda muhim metodologik vazifani bajaradigan kategoriyalar yangicha mazmuniga ega bo'lib bormoqda. Albatta, o'rganilayotgan mavzu muammosi ham bugungi kunning eng dolzarb masalasi qatoriga kirib bormoqda. Ijtimoiy borliqning mohiyatini anglab yetishda, haqqoniy bilimga ega bo'lishda ijtimoiy amaliyot mezon vazifasini o'tab beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2010-yilda ishlab chiqilgan «Jamoatchilik Asosidagi Reabilitatsiya (JAR) bo'yicha yo'riqnoma»ni mazkur masala yuzasidan xalqaro huquqiy asos sifatida ko'rishimiz mumkin[12]. Bu yo'riqnoma nogironligi bo'lgan shaxslarni jamoatchilik asosida reabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga integratsiya qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan. Yo'riqnomada nogironligi bo'lgan shaxslarni sog'liq,

ta'lim, ish va ishtirok, ijtimoiy hayot va xizmatlar sohalarida qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bu yo'riqnoma mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash sohasida yangi yo'nalishlarni belgilashda asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Bu qonunlar va qarorlar orqali nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiylashuvi, ta'lim olishi, ish bilan ta'minlanishi va boshqa huquqlari himoya qilinadi.

Shuningdek, mazkur hujjatda nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy himoyalash va reabilitatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ma'lumoti berilgan. Xususan, nogironligi bo'lgan yoshlar qanday qo'llab-quvvatlanadi va boshqa xizmatlar orqali nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy himoyalash hamda reabilitatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Bu huquqiy asoslar orqali nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiylashuvi va huquqlari himoya qilinadi, ularning ta'lim va ish bilan ta'minlanishi kuchaytiriladi.

Yangi O'zbekistonda demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishdek ezgu maqsadlarga yoshlar ishtirokisiz erishib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati – yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlashi kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqeyi yuksak bo'ladi.

Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida keng ishtirok etadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini qondiradi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda 2018-yil 12-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan. Shuningdek, 2023-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida ham fuqarolarning davlat organlarining faoliyatlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan[13].

Mazkur Qonunga ko'ra, fuqarolik jamiyatining to'rtta asosiy institutlari jamoatchilik nazorati subyekti hisoblanadi. Ularga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari kiradi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklandi.

Inson ijtimoiy faolligining asosida uning huquqiy kafolati, erkinligi, jamiyatda demokratik mezonlarning mavjudligi yotadi. Insonlarning birgalikda yashashining kafolati bu jamiyatda, butun dunyoda huquqning, huquqiy madaniyatning mavjudligidir. Ya'ni, insonlarning va ularning kelajagi bo'lgan yoshlarning yashash, o'qish, moddiy va ma'naviy boyliklardan foydalanish kabi

huquqlari real qonuniy asosga qo'yilgan jamiyatdagina shaxsning erkin inson sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratildi.

Ijtimoiy faollikni yanada kuchaytirishning eng muhim huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xizmat qiladi. U, ayni paytda, demokratik ijtimoiy davlat rivojlanishi, fuqarolik jamiyatining yanada takomillashuvining qonuniy kafolatidir.

O'zbekiston o'z oldiga demokratik huquqiy ijtimoiy davlat, uning yuqori bosqichi bo'lgan fuqarolik jamiyatini qaror toptirishni maqsad qilib qo'ygan. Bunday davlatda jamiyat fuqarolarning haq-huquqlari nafaqat kafolatlanadi, balki ularni amalga oshirishda davlatning o'zi jonbozlik ko'rsatadi, har qanday mamlakatning kelajagi bo'lgan yoshlar o'qishda, sportda, ilmiy-texnik ijodda, mehnat ko'nikmalarini hosil qilishda, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishining e'tibori ortib bormoqda. Buning uchun birinchidan, oilada sog'lom muhitning bo'lishi; ikkinchidan, ta'lim muassasalarida sifatli o'qitish; o'quvchining fikrini eshitishni va erkin munozarani yo'lga qo'yish; uchinchidan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qiluvchi ijtimoiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi 25-moddasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi erkinligi, 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga, 41-moddasida har bir shaxs mulkdor bo'lishiga haqli ekanligi, 50-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, 53-moddasida har kimga ilmiy-texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanganligi belgilab berilgan. Har qanday inson faoliyati – bu uning ongi, fikri, tafakkuri va dunyoqarashining real hayotiy faoliyatiga aylanishi samarasidir. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil fikrlashning mahsulidir.

Mamlakatimizda kelajak avlod haqida qayg'urish, ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratib kelinmoqda. Zero, intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining asosini tashkil etadi.

«Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»(yangi tahrir)gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Yoshlar ishlari sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori va boshqa rasmiy hujjatlar yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda[13].

Ma'lumki, har qanday inson faoliyati – bu uning ongi, fikri, tafakkuri va dunyoqarashining real hayotiy faoliyatiga aylanishi samarasidir. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil fikrlashning mahsulidir.

Mamlakatimizda kelajak avlod haqida qayg'urish, ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishi hisoblanadi. Yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratib kelinmoqda. Zero, intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining asosini tashkil etadi.

«Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»(yangi tahrir)gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Yoshlar ishlari sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori va boshqa rasmiy hujjatlar yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda[15].

Ko'plab ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida O'zbekistonda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. Joylardagi o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun Toshkent viloyatidagi Chirchiq davlat pedagogika instituti va viloyatlardagi universitetlar huzurida pedagogika institutlari tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlarda o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati yaratildi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad al-Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomidagi, aniq fanlarni chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan Prezident maktablari tashkil etildi. Ushbu amaliy ishlar zahirida «O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi»da belgilangan ustivor yo'nalishlar hamda «Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik» ezgu g'oyasi yotibdi.

O'zbekistonda ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar davom etmoqda. Jumladan, yangi turdagi ta'lim maskanlari, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Birgina 2020-yilning o'zida, O'zbekistonda matematika fani bo'yicha 56 ta, kimyo-biologiya fani bo'yicha 28 ta, IT sohasida informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha 14 ta ana shunday maktablar tashkil etildi.

Mamlakatimizda jahon ta'lim tajribasi o'rganilib, yangi tartib-qoidalar, zamonaviy ta'lim usullari joriy etilmoqda. Nodavlat ta'lim maskanlari davlat tomonidan keng qo'llab-

quvvatlanayotgani tufayli hozirgi vaqtda ularning soni 195 taga etdi. Bularning barchasi o'z ijobiy natijasini bermoqda. Buni 2017-2020-yillarda o'quvchilarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 30 ta medalni qo'lga kiritgani misolida ko'rishimiz mumkin. Yoshlarni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish uchun 2020-2021-o'quv yilining o'zida 339 ta kasb-hunar maktablari, 194 ta kollej va 195 ta texnikumlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda 2024-2025-o'quv yilida 5 ta yangi oliy ta'lim muassasasi faoliyati yo'lga qo'yilgan va ularning soni jami 211 taga yetgan. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 211 ta OTMdan 112 tasi davlat, 69 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Hozirda 211 ta oliygohda 1 mln 167 ming nafardan ortiq talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich orqali yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2023-2024 o'quv yildagi 42 foizdan 43 foizga oshgan[21].

2023/2024-o'quv yili uchun 48 ta davlat oliy ta'lim muassasasining 20 ta xorijiy mamlakat bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlari ekspertizadan o'tkazildi. Ijobiy xulosa berilgan 289 ta qo'shma ta'lim dasturi uchun 6 818 ta kvota kelishib berilgan.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi, ya'ni jamiyat hayotida faol bo'lishi kelajakka ishonch tuyg'usi asosida shakllanadi. Qachonki inson jamiyat barqaror rivojlanishiga ishonsa, jamiyat qonunlarining ustuvor mavqeyini anglasa, kelajakka qat'iy ishonsagina uning xatti-harakati muayyan ma'no kasb etadi. Yoshlarda ijtimoiy faollik shakllanishida azaliy, umummilliy, diniy va axloqiy qadriyatlarning ham munosib o'rni bor. Zotan, xalqimizda jamiyat hayotiy hodisalarini anglashda ma'naviy-axloqiy va diniy qadriyatlar yetakchi o'rinni egallab kelgan.

Yoshlarda ijtimoiy faollikning shakllanishi quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

- shaxs jamiyat mahsuli va a'zosi sifatida jamiyat yaratgan ne'matlarni qadrlashi va o'zi ham yaratishni o'rganishi;
- mehnat qilish uchun yaratilgan shart-sharoitni qadrlay olishi;
- jamiyat bergan bilim, tajriba va tafakkurni anglashi;
- jamiyat a'zolari Vatanning muqaddas tuprog'i, havosi, suvi va moddiy boyliklaridan oqilona foydalanishlari va e'zozlashlari;
- jamiyat ishini o'z ishi kabi bilish, qadrlash va tashabbus ko'rsatishi;
- o'zining va avlodlarining farovon turmushini o'ylab, unga astoydil xizmat qilish.

Ko'plab yoshlar an'anaviy kasb-hunar va hayotda zarur ko'nikmalar, bilim va malakani uyda, oila a'zolaridan, ya'ni ota-ona, opa-singil va aka-ukalaridan o'rganadi. Odamni daromad topish bilan shug'ullanishga tayyorlashning eng asosiy yo'li aynan «uy sharoitida o'rganish» kabi yondashuvdir. Ammo, nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlar hamda imkoniyati cheklanganlikni og'ir holatidagi kattalar «bajarish orqali o'rganish» jarayonida qatnasha olmaydi, chunki ota-ona

va oilaning boshqa a'zolari uni nimaga qodirligi va nimani bajara olmasligi haqida muayyan fikrga ega bo'lib, uni o'zgartirishni istamaydi. Ota-ona farzandini xavf-xatardan asrayman deydi yoki nogironligi bo'lgan bolani o'rganishiga va oila daromadiga hissa qo'sha olishiga ishonmaydi, unga umuman e'tibor bermaydi va rag'batlantirmaydi. Buning oqibatida, nogironligi bo'lgan bola kerakli ko'nikmalarni hosil qilolmaydi va natijada ro'zg'or ishlariga hissa qo'sholmaydi. Uning ajratib qo'yilishi o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga, oila va jamoat ishlarida to'liq ishtirok etolmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik Asosidagi Reabilitatsiya (JAR)[12] dasturlari ota-onalarga nogironligi bo'lgan farzandning o'rganish va oila daromadiga hissa qo'shish imkoniyatlarini tushunishlarida katta rol o'ynay oladi. Bu borada quyidagi faoliyat taklif etiladi:

- daromad olish yoki uy yumushlarini bajarishda, nogironligi bo'lgan shaxslarga yordam bera olishi mumkin bo'lgan yo'llarni aniqlash;
- oila a'zolarini nogironligi bo'lgan oila a'zosini o'rgatish va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda samarali uy yumushlariga jalb etishda rag'batlantirish;
- nogironligi bo'lgan shaxslarning uy yumushlari va daromad olishga qaratilgan faoliyatdagi ishtirokini kuzatib borish.

Xulosa. Bunday olijanob sifatlarga ega bo'lish yoshlardan bilim, yuksak e'tiqod va shijoatni talab etsa, jamiyatdan esa demokratik tamoyillarning barqarorligi, huquqiy asoslarning mustahkamligi va jamiyat a'zolarini fidoyiligi kabi omillarni rivojlantirishni talab etadi[21].

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator davlat dasturlari, Qonunlar va Qarorlar qabul qilingan. Ularda nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan yoshlarning jamiyatda munosib o'rin egallashlari va o'zlarini jamiyatning ajralmas bir bo'g'ini sifatida to'laqonli his etish, faoliyat olib borishlari, asosiy maqsad deb belgilangan bo'lsa-da, ammo hamon ushbu sohada qator muammolar mavjud. Bu esa, nogironligi bo'lgan yoshlar duch keladigan firibgarlik, qashshoqlik, ta'lim sohasida va bandlik masalalarini yechishda mavjud bo'lgan tengsiz sharoitlar, shuningdek sog'liqni saqlash tizimining o'zi tomonidan qo'yilgan cheklovlar nogironligi bo'lgan yoshlarning sog'lig'ini saqlash sohasidagi tengsizliklarga olib keladi. Kambag'allik, ta'lim va ish bilan ta'minlanmaslik, qiyin yashash sharoitlari kabi omillar nogironligi bo'lgan shaxslar sog'lig'ining yomonlashuvi va sog'liqni saqlashga bo'lgan ehtiyojini e'tiborsiz qoldirish xavfini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi, 1948 yil 10 dekabr.
2. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi; Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966 yil 16 dekabr.

3. Jeneva konvensiyalari to'plami./ L. Saidov tahriri ostida.-Toshkent, 2002.
4. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri L.X.Saidov. -T.: "Adolat", 2004. -520 b.
5. BMT "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" hamda "Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga Fakultativ protokol" 2006 yil 13 dekabrda 61/106-rezolyutsiyasi.-Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya kitobida//<https://www.undp.org/sites>
6. Yevropa Ittifoqining Asosiy huquqlar bo'yicha agentligi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqi: Inson huquqlari ko'rsatkichlari", (Vena, 2014 yil).
7. Yevropa Kengashi Parlament assambleyasining 2039 (2015)1-son Nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquqliligi va ularni teng ravishda qamrab olish to'g'risidagi rezolyutsiyasi, 2014 yil 12 dekabr.
8. YEKPAning Tenglik va kamsitilmaslik masalalari bo'yicha qo'mitasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy huquqlari: demokratiya masalasi" hisoboti, Strasburg, 2015 yil
9. YEXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIHIB), "Nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish huquqini ta'minlash" (Varshava, 2017 yil sentyabr)
10. Inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha umumjahon dasturi. Uchinchi bosqich. – BMT, YUNESKO, 2017.
11. YEXHT Parlament assambleyasining Berlin deklaratsiyasi, Berlin, 2018 yil 7-11 noyabr
12. Jamoatchilik Asosidagi Reabilitatsiya (JAR) bo'yicha yo'riqnoma.-Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, 2010
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston,2023
14. Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 avgustdagi 5006-son Farmoyishi//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 31-son, 774-modda.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" 23-son Qarori//[www. lex.uz](http://www.lex.uz)
16. Usmonov M.A. O'zbekistonda keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalashning tashkiliy-huquqiy muammolari. Yu.f.n..dis. –Toshkent,1995.

17. Ganiyeva M.X. Sotsiokulturnaya adaptatsiya detey s ogranichennimi vozmojnostyami kak napravleniye sotsialnoy zashiti. Jurnal. Obshestvennoye mneniye. Prava cheloveka. Toshkent-2018. №4. S. 35-45
18. Dunkle, K., et al., Disability and violence against women and girls. 2018, UKaid: London
19. Xoliqulova X.Y. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. diss. Toshkent 2018.
20. Britannica, The Editors of Encyclopedia. "Scandinavia". Encyclopedia Britannica, 22 Oct. 2021, <https://www.britannica.com/place/Scandinavia>. Accessed 27 March 2022.
21. Alimova Sh.X. Yangi O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonlarining ilmiy-falsafiy tahlili. Fal.fan.dokt. (PhD)...dis. – Toshkent, 2025.
22. REACH, AQSHning Fort-Uort, Dallas, Denton va Planodagi nogironligi shaxslar huquqlarini ilgari surishga ixtisoslashtirilgan mustaqil hayot bo‘yicha resurs markazi, <https://www.reachcils.org/guidelineswriting-and-referring-people->
23. The German Constitution (Basic Law)// elektron manba: <http://www.europarl.europa.eu/studies>
24. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/disabled.shtml